

**JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUDDA ISH YURITISHNI
RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI: TUSHUNCHALARI,
MAZMUNI VA O‘ZARO MUNOSABAT**

Kadirova Moxigul Xamitovna

Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori v.b. yuridik fanlar doktori.

Ismatillayev Og‘abek Otabekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20043536>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ish yuritishni raqamlashtirish bilan bog‘liq asosiy tushunchalar – “raqamlashtirish”, “elektron sud” va “digital protsess”ning mazmuni, o‘zaro farqi va huquqiy mohiyati tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy huquqshunoslarning nazariy yondashuvlari qiyosiy-huquqiy o‘rganilgan holda, muallif tomonidan jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ish yuritishni raqamlashtirishning muhim jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, elektron sud, digital protsess, jinoyat protsessi, sun‘iy intellekt, raqamli transformatsiya, protsessual kafolatlar.

**ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ СУДОПРОИЗВОДСТВА
ПО УГОЛОВНЫМ ДЕЛАМ: ПОНЯТИЯ, СОДЕРЖАНИЕ И ВЗАИМОСВЯЗЬ**

Аннотация. В данной статье анализируются содержание, взаимосвязи и правовая природа ключевых понятий, связанных с цифровизацией уголовного судопроизводства: «цифровизация», «электронный суд» и «digital protsess». На основе сравнительного изучения теоретических подходов зарубежных и отечественных правоведов автором проанализированы важные аспекты цифровизации уголовного судопроизводства.

Ключевые слова: цифровизация, электронный суд, digital protsess, уголовный процесс, искусственный интеллект, цифровая трансформация, процессуальные гарантии.

**THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF DIGITALIZATION OF CRIMINAL
PROCEEDINGS: CONCEPTS, CONTENT AND INTERRELATION**

Abstract. This article analyzes the essence, distinctions, and legal nature of core concepts related to the digitalization of criminal proceedings: “digitalization” “e-court” and “digital process”. Through a comparative study of theoretical approaches by foreign and domestic legal scholars, the author examines critical aspects of digitalizing criminal court proceedings.

Keywords: digitalization, e-court, digital process, criminal procedure, artificial intelligence, digital transformation, procedural guarantees.

Raqamli (digital) texnologiyalar mamlakatimiz sud-huquq tizimida ham o‘z aksini topib, jumladan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida sudlarni raqamlashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi¹. Biroq jinoyat protsessi sohasida “raqamlashtirish”, “elektron sud” va “digital protsess” tushunchalarining ilmiy mazmuni va o‘zaro munosabati hanuz yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ushbu bo‘shliq bo‘yicha nazariy-huquqiy tahlil olib borish, “raqamlashtirish” tushunchasining mazmuni va huquqiy mohiyatini o‘rganish dolzarb vazifa sanaladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06. 10. 2020.

Dastavval dunyo huquq fanida “raqamlashtirish” iborasi ilk marotaba 1995-yilda texnika fanlarida Jozef Bauyer va Kleyton Kristensenlar tomonidan qo‘llanilgan.

Huquqshunoslik sohasida esa ushbu tushunchani birinchi bor xorijiy olim Richard Susskind ishlatgan bo‘lib², u o‘zining “Tomorrow’s Lawyers” (Oxford, 2017) asarida raqamlashtirishni huquq sohasidagi “*Uchinchi sanoat inqilobi*” deb baholab, uni nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, raqamlashtirish uch bosqichni o‘z ichiga oladi: mavjud jarayonlarning oddiy avtomatlashtirilishi (*digitization*); biznes va ish jarayonlarining qayta loyihalaniishi (*digitalization*) hamda butun tizimning tubdan transformatsiyasi (*digital transformation*)³.

Rus huquqshunosi S. S. Alekseev raqamlashtirishni “*huquqning yangi mavjudlik shakli*” sifatida ta’rifladi⁴, M. N. Marchenko uni “*huquqiy tartibga solish predmetining kengaytirilishi*” tarzida talqin qilib, an’anaviy huquqiy institutlarning raqamli muhitda qayta o‘ylab chiqilishi zarurligini ta’kidlaydi⁵. Rus huquqshunosi M. N. Kuznetsov esa raqamli sud ishlarini “*sud ishlarini ko‘rib chiqishning sifat jihatdan yangi darajasi*” deb belgilaydi⁶. R. Dvorkinning “*Huquqning yaxlitligi*” konsepsiyasi kontekstida esa sun’iy intellekt yoki algoritmlar yordamida qabul qilinadigan qarorlar ham umumiy huquqiy tamoyillar va qadriyatlar tizimiga mos kelishi lozimligini, aks holda o‘z legitimligini yo‘qotishi mumkinligi ta’kidlaydi⁷.

“Elektron sud” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, elektron sud (e-court, e-justice) tushunchasi raqamlashtirishga nisbatan tor doirada qo‘llaniladi – bu sud jarayonining muayyan elementlarini elektron shaklda amalga oshirishni anglatadi: *elektron hujjat almashinuvi, ariza va shikoyatlarni internet orqali topshirish, sud qarorlarini elektron e‘lon qilish, masofaviy sud majlislari va elektron arxivlar va boshqa*.

Yevropa Kengashining CEPEJ ta’rifiga ko‘ra, elektron sud – axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda barcha bosqichlarda fuqarolarga xizmat ko‘rsatuvchi va sud jarayonini yurituvchi tizimdir. Nemis huquqshunosi P. Gilles elektron sudni “*axborot texnologiyalari muhitida sud hokimiyatining yangi institutsional shakli*” sifatida tavsiflaydi.

Uning fikricha, elektron sud nafaqat texnologik vosita, balki sud hokimiyatining konstitutsiyaviy maqomini saqlab, yangi shaklga kirishi hisoblanadi⁸. Estoniya Oliy sudi raisi Villu Koverning ta’kidlashicha, yaqin yillarda sudda ish yuritish qog‘ozsiz olib borilib,⁹ professor Susskind elektron sud ishlarini yuritishni ikki ko‘rinishda tahlil qiladi: **birinchisi** – “*onlayn qarorlar qabul qilish*” (online judging), ya’ni sudya taraflarning Internet orqali taqdim etgan dalillarini baholaydigan online sud majlisi; **ikkinchisi** – “*sud xizmatlari*” (extended courts), ya’ni taraflar o‘zlarining protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushunishiga yordam beradigan raqamli dasturlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi¹⁰.

² Richard Susskind, *The End of Lawyers Rethinking the Nature of Legal Service*, Oxford: Oxford University Press 2010.

³ Richard Susskind, *The End of Lawyers Rethinking the Nature of Legal Service*, Oxford: Oxford University Press 2010.

⁴ Alekseev S. S. *Право: азбука – теория – философия: опыт комплексного исследования* – М: Статут, 1999.

⁵ Марченко М. Н. *Теория государства и права: учебник*. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Проспект, 2019.

⁶ Кузнецов М. Н. Влияние цифровизации на некоторые руководящие начала гражданского судопроизводства / ВЕСТНИК МГПУ серия “Юридические науки”. 2020. - С.64-65.

⁷ Dworkin. R. *Law’s Empire*. – Cambridge, Massachusetts: Belknap Press of Harvard University Press, 1986. – P. 176-224.

⁸ Gilles. P. “Justizsystem im digitalen Wandel”: E-Justice in Deutschland und Europa. – Baden-Baden: Nomos, 2010.

⁹ <https://aastaraamat.rigikohus.ee/en/artificial-intelligence-a-substitute-or-supporter-of-judges>

¹⁰ <https://www.abajournal.com/news/article/online-courts-the-future-of-justice-and-being-bold-in-2020>

“Digital protsess” tushunchasi va uning jinoyat-protsessual mazmuni bo‘yicha so‘z ketganda, “Digital protsess” yoki “raqamli protsess” tushunchasi sud ish yuritishning barcha bosqichlarini elektron muhitga o‘tkazishni nazarda tutadi.

Bu tushuncha elektron suddan ko‘ra kengroq mazmunga ega, chunki u nafaqat sud bosqichi, balki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuror nazorati va sud qarorini ijro etish kabi barcha protsessual bosqichlarni qamrab oladi. Amerikalik huquqshunos R. Marcus o‘zining “Digital Discovery” (Stanford Law Review, 2018) tadqiqotida digital protsessni “*sud jarayonining barcha bosqichlarida raqamli ekotizimning yaxlit ishlashi*” deb ta’riflaydi¹¹.

Tahlillar natijasida, jinoyat protsessi nuqtai nazaridan digital protsess quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: elektron jinoyat ishi, elektron bayonnoma, raqamli dalillar (digital evidence), elektron protsessual hujjatlar, videokonferensaloqa orqali sud majlislari, sun‘iy intellekt yordamida tahlil va prognoz qilish vositalari hamda elektron tergov harakatlari kabilar.

Bu elementlarning yaxlit tizim sifatida ishlashi digital protsessning mohiyatini tashkil etadi.

Xususan, sun‘iy intellekt atamasi 1955-yilda Jon Makkarti tomonidan kiritilgan bo‘lib, D. Reylingning tadqiqotiga ko‘ra, sudlarda sun‘iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari: **axborotni qidirish** (*katta hajmdagi ma’lumotlardan zarur axborotni ajratib olish*); **maslahat berish** (*o‘z muammosiga yechim izlayotgan taraflarga yordam*); hamda **hujjatlarni avtomatik tasniflash, shakllantirish va hujjatlash** iborat¹². AQShda 2018-yilda robot-advokatlar 1 milliard dollardan ortiq xizmatlarni taqdim etganligi bu sohaning amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi¹³.

Mahalliy olim D. Aripovning fikricha, odil sudlovda sun‘iy intellekt – muayyan ishlar bo‘yicha sud amaliyoti va qonun hujjatlarini tahlil qiluvchi hamda tegishli qarorni qabul qiluvchi elektron dastur bo‘lib, u inson-sudyani o‘rnini bosa olmaydi. P. Morxat ham bu fikrni qo‘llab: “Hozirgi zamonda inson-sudyalarni sun‘iy intellekt bilan almashtirish emas, balki uni yordamchi sifatida jalb qilish maqsadga muvofiq”, deb ta’kidlaydi¹⁴.

Raqamlashtirish, elektron sud va digital protsess tushunchalarining o‘zaro nisbati nazariy jihatdan quyidagicha ifodalanishi mumkin: **raqamlashtirish** – umumiy ijtimoiy-texnologik jarayon; **elektron sud** – uning sud sohasidagi institutsional natijasi; **digital protsess** esa elektron sud doirasida protsessual jarayonlarning raqamli amalga oshirilish mexanizmidir. Ushbu uchta tushuncha bir-birini to‘ldiradi va sud-huquq tizimini raqamli transformatsiyalashning konseptual asosini tashkil etadi.

Yuqorida bayon etilgan tahlilga asoslanib, jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ish yuritishni raqamlashtirishni quyidagicha tushinish mumkin:

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ish yuritishni raqamlashtirish – bu jinoyat protsessining barcha bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali sud jarayonining tezkorligi, samaradorligi, shaffofligi va sifatini oshirish, ayni paytda jarayon ishtirokchilarining

¹¹ Marcus. R. (2018). Digital Discovery in the 21st Century. Stanford Law Review, Vol. 70, Issue 6, pp. 1501-1525.

¹² McCarthy J., Minsky M. L., Rochester N., Shannon C. E. A Proposal for the Dartmouth Summer Research Project on Artificial Intelligence. – Dartmouth, 1955. / Reiling D. Courts and Artificial Intelligence // International Journal for Court Administration. – 2020.

¹³ Artificial Intelligence Index Report 2019. Stanford Institute for Human-Centered AI (HAI). – Stanford University, 2019.

¹⁴ Морхат П. М. Искусственный интеллект: правовой взгляд. – М.: Буки Веди, 2017.

konstitutsiyaviy va protsessual huquqlarini to'liq ta'minlashga qaratilgan kompleks huquqiy-tashkiliy va texnologik faoliyatdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "raqamlashtirish", "elektron sud" va "digital protsess" tushunchalari bir-biriga yaqin, biroq hajm va mazmun jihatdan farqlanadigan kategoriyalardir.

Ularning to'g'ri tasniflanishi jinoyat protsessini raqamli transformatsiya qilishning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish uchun muhimdir. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi, va "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son Farmonlari doirasida bu tushunchalarni qonunchilikda aniq mustahkamlash, raqamli protsess elementlari uchun yaxlit normativ bazani shakllantirish va sun'iy intellektni sud amaliyotiga joriy etishning etik-huquqiy chegaralarini belgilash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni jinoyat protsessining klassik maqsadlarini inkor etmaydi, aksincha, ularga erishishning zamonaviy mexanizmlarini taqdim etadi. Bunda adolatni qaror toptirish va inson huquqlari himoyasi kabi fundamental vazifalar o'zgarmas o'zak bo'lib qoladi.

Raqamli transformatsiya faqatgina protsessual shaklni takomillashtirishga xizmat qilishi, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 va 27-moddalarida mustahkamlangan shaxs daxlsizligi hamda shaxsiy hayot sirlarini himoya qilish kafolatlari yangi texnologik muhitda ham o'zining to'laqonli yuridik kuchini saqlab qolishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6127-son Farmoni. 2020-yil 3-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-11-son Farmoni. "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish to'g'risida".
3. Susskind R. "Tomorrow's Lawyers". Oxford: Oxford University Press, 2017.
4. Susskind R. "Online Courts and the Future of Justice". Oxford: Oxford University Press, 2019.
5. Marcus R. "Digital Discovery in the 21st Century". Stanford Law Review, Vol. 70, 2018.
6. Reiling D. "Technology for Justice". Leiden: Leiden University Press, 2009.
7. Dworkin R. "Law's Empire". Cambridge: Harvard University Press, 1986.
8. Кузнецов М. Н. Влияние цифровизации на некоторые руководящие начала гражданского судопроизводства // ВЕСТНИК МГПУ. 2020.
9. Алексеев С. С. Право: азбука – теория – философия. М.: Статут, 1999.
10. Kadirova M. X. Raqamlashtirish orqali jinoyat protsessual muddatlarni takomillashtirish muammolari: DSc dissertatsiyasi. Toshkent, 2026.
11. CEPEJ. European Ethical Charter on the Use of AI in Judicial Systems. Strasbourg, 2018.
12. Artificial Intelligence Index Report 2019. Stanford Institute for Human-Centered AI (HAI). – Stanford University, 2019.
13. Морхат П.М. Искусственный интеллект: правовой взгляд. – М.: Буки Веди, 2017.